

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA TABIIY FANLARNI O'QITISH JARAYONIDA KO'RGAZMALI VOSITALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

***Yulchiyeva Zulfiya Baxodir qizi***

*Namangan davlat pedagogika instituti 1-bosqich tayanch doktoranti*

**Telefon raqam: +998930610592**

**Anotatsiya:** Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilariga Tabiiy fanlarni o'qitishda ko'rgazmali vositalardan foydalanishning nazariy asoslarini o'rganadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida Tabiiy fanlarga bo'lgan qiziqishni shakllantirish ularning kelajakda muvaffaqiyatli bo'lishiga zamin yaratadi.

**Kalit so'zlar:** tabiiy fanlar, ko'rgazmali vositalar, model, globus, mulyaj, aplikatsiya, kompas, termometr, ekran -ovozli.

## МЕТОДОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВИЗУАЛИЗАЦИИ В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК УЧАЩИМСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

***Юлчиева Зулфия Баходир қизи***

**Телефон номер: +998930610592**

*Докторант 1-го года обучения, Наманганский государственный  
педагогический институт*

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются теоретические основы использования наглядных пособий при преподавании естественных наук ученикам начальной школы. Формирование интереса к естественным наукам у учащихся младших классов закладывает основу их будущих успехов.

**Ключевые слова:** естествознание, наглядные пособия, модель, глобус, манекен, аппликация, компас, термометр, экран - с голосом.

## METHODOLOGY OF USING VISUALS IN THE PROCESS OF TEACHING NATURAL SCIENCES TO PRIMARY CLASS STUDENTS

***Yulchiyeva Zulfiya Baxodir qizi***

*Namangan State Pedagogical Institute, First-Year Doctoral Student*

**Telefon number: +998930610592**

**Abstract:** This article examines the theoretical basis of using visual aids in teaching natural sciences to elementary school students. Formation of interest in natural sciences in elementary school students lays the groundwork for their future success.

**Keywords:** *natural sciences, visual aids, model, globe, dummy, application, compass, thermometer, screen - with voice.*

## KIRISH

Unib o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol inson bo'lishi jamiyatning rivojlanishidagi eng asosiy omillardan biridir. Shu bilan bir qatorda ularning ijtimoiy faollashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta'lim sharoitida yoshlar uchun ajratilgan barcha sharoitlar shaxsni rivojlantirish, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Bugungi kunda jamiyatimizning har bir o'quvchi va talabasi jahon andozalariga mos ravishda tayyorlanishi zarur. Yoshlarning puxta bilim olishi xamda zamonaviy soxalardan fan asoslarini chuqur egallashlari birinchi navbatda ta'lim berish samaradorligiga bog'liq.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishda qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ulardan ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarini hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi".

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Nemis metodisti Lister Veg ko'rgazmalik roliga katta baho bergan edi: "Ko'rgazmalik yo'lidan tashqari boshqa hech qanday yo'l bilan odam bilim olishi mumkin emas" degan edi.

Keyinchalik K.D.Ushinskiy bu nazariyani rivojlantirib, ko'rgazmalikni ahamiyatini quyidagicha asoslab berdi: "Bolaga qanday bo'lmasin, besh noma'lum

soʻzni oʻrgating va u uzoq vaqt behuda qiynaladi: ammo surʼatlar bilan bogʻlasangiz, 20 ta shunday soʻzni u goʻyo (uchgandek) yengil oʻzlashtiradi”, deb yozgan edi.

Ushinskiy oʻz asarlarida turli soʻzlar va bilimlarni bolalar shakllar, ranglar, hajm va tovushlar vositasida idrok qiladi va tasavvurlar shakllanadi, deb qayd etadi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Boshlangʻich sinf Tabiiy fanlarni oʻqitishda quyidagicha koʻrgazma vositalar qoʻllaniladi:

Tabiiy yoki predmetli koʻrgazma qoʻllanmalar.

Tirik mavjudotlar – barcha tirik oʻsimlik va hayvonlar; gerbariylar, tulumlar, kolleksiyalar, oʻsimliklar, urugʻlari, mevalari, hayvonlar kollektsiyalari, foydali qazilmalar, togʻ jinslari, mineral moddalar, tuproq namunalari, oʻgʻitlar, torf. Toʻgʻarak mashgʻulotlari, sinfdan tashqari mashgʻulotlar jarayonida ular oʻquvchilar tomonidan tayyorlanishi ham mumkin.

Hoʻl preparatlar, quruq preparatlar oʻsimlik va hayvonlar qismlarini tabiiy holda quritilgani. Ularga donli, texnik va sabzavot ekinlari yigʻmalari kiradi. Oʻsimliklarning vegetativ qismlari va gul preparatlaridir. Daryo qisqichbaqasining skeleti (boʻlimlarga boʻlingan) umurtqali hayvonlar skeletlari, suyaklar toʻqimi shu guruhga mansubdir. Hajmi va bogʻlamli gerbariylar tabiiy koʻrgazmalar namunasidir.

**Tasviriy koʻrgazmalar.** Ular tayyor holda doʻkonlarda sotiladi, fabrikalarda toʻplam holida tayyorlanadi, maktablar esa zaruriy miqdorda sotib oladilar.

Hajmli koʻrgazma vositalariga qoʻydagilar mansubdir:

Model - bu 3 oʻlchamli koʻrgazma qurol boʻlib, jism yoki uning alohida qismlarini koʻrinishini aks ettiradi. Model faqat tashqi koʻrinishni emas, ichkimazmunni ham aks ettirib, tabiiy jismga yaqinlashtiradi.

Ichki organlar modellari ham mavjud: yurak, oʻpka, boʻyrak, gulning modeli, meva va urugʻlar modellari tayyorlanagan, ayrimlarini bolalarning oʻzlari yasashlari mumkin. Maktab sharoitida plastilin, parafin, karton qogʻozdan bolalarning oʻzlari yasashlari mumkin.

**Xarita va globus.** Oʻquvchilar 4-sinfda xarita va globus toʻgʻrisida dastlabki tasavvurlarni oladilar, shuning uchun sinfda Oʻzbekiston Respublikasining tabiiy

xaritasi, yarim sharlar tabiiy xaritasi, tabiiy zonalar xaritasi, foydali qazilmalar xaritasi bo'lishi kerak. Shuningdek atrof joyning shartli belgilariga ega bo'lgan yirik masshtabli plani va o'quvchilar yashayotgan hamda o'qiyotgan shahar yoki aholi punktining planidan ham foydalaniladi.

O'quvchilarning sinfda va uyda individual ishlashlariga mo'ljallangan «Bizning vatanimiz» atlas, shuningdek 4-sinf uchun kontur kartalar keng qo'llaniladi. Sinfdagi ishda diametri 42,5 sm li katta globusdan, individual ishda esa diametri 15 sm li globusdan foydalaniladi.

**Mulyaj-** bu jismning tashqi ko'rinishi (rangi, hajmi, shakli)-ichki mazmunsiz. Tabiiy fanlarga oid mulyajlar-mevalar sabzavot va ildizli mevalardir. Tayyor holda fabrikalardan chiqariladi, ya'ni maktab dasturiga asoslangan holda tayyorlanadi. Mulyajlar to'garak mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilar kuchi yordamida ham tayyorlanadi.

**Applikatsiya** - bir tomonlama ko'rinishli hajmli qo'llanmadir. Plastilin, oyna maydalaridan tayyorlanadi. Terining tuzilishi, o'pka bo'yрак va boshqa ichki organ a'zolarini shu yo'l bilan tayyorlab, tuzilishlari o'rganiladi. Qon aylanish tizimi, nafas olish, bosh miyaning tuzilishini ko'rsatish mumkin.



Boshlang'ich sinflarda kompas, termometr ishlatish yo'llarini o'rgatish ham katta ahamiyatga molik.

**Kompas** –(lot. *com-* – „ham-, birga“ va *passus* – „yo'l“, „qadam“; „hamqadam“, „yo'ldosh“) navigatsiya asbobi bo'lib, yer sirtiga nisbatan tizimda yo'nalishlarni aniqlaydi. Bu tizim to'rt dunyo tomonlari – shimol, janub, g'arb va sharqni belgilaydi va joyning mo'ljalini olish uchun foydalaniladigan (pribor) –asbob.

Shahar chetidagi o'rmonda, sayohatlar, sayrlarga chiqqan paytlarda kompasdan foydalaniladi.


**Termometr**– harorat o'zgarishi bilan suyuq moddalarni kengayishini aniqlashda qo'llaniladi. Ob-havoni kuzatishda, suvni haroratini, tabiiy fanlar darslarida o'simliklar ustida tajribalardan foydalanishda termometr qo'l keladi.

**Ekran qurollari** (diafilmlar, diapozitivlar, slaydlar) mustaqil rolni yoki asosiy to'ldiruvchisi sifatida yordamchi rolni bajarishi mumkin. Ekran qurollari devoriy suratlar kabi zaruriyatga qarab namoyish qilinadi. Bir darsning o'zida 5—6 kadrardan foydalanish tavsiya qilinadi. Ayrim hollarda 10 tacha kadrlardan foydalansa bo'ladi. Ular hujjatli, ko'rinishli yoki multifikatsiyalashgan bo'lishi mumkin. Ulardan maqsadga yo'nalgan holda foydalanish zarur. Ekran qurollarining kadrlarini e'tibor bilan ko'rish lozim, lekin uzoq vaqt emas, chunki bunda plyonka va oyna qizib ketadi va shakli o'zgarishi yoki yorilib ketishi mumkin. Bundan tashqari yorug'lik surati kuchli ta'sirlovchi sifatida ko'rish organini tezda charchatadi va shuning uchun ham tezda o'quvchilarning me'dasiga tegadi. Murakkab kadrlardan foydalanishning eng ko'p vaqti 1—2 minut. Agar darsning maqsadi o'tilganlarni takrorlash bo'lsa, unda yorug'lik suratlarining (kadrlarining) soni 20—25 gacha ko'paytirilishi mumkin. Esda tutish kerakki, ko'rsatilgan suratni o'quvchilarning o'zlari tushuntirishlari kerak. Faqat o'quvchi ko'rganlarini noto'g'ri tushuntirayotganda, mavzudan chetlaganda, muhimlarini ko'rmagandagina o'qituvchining aralashuviga yo'l qo'yiladi.

Harakatsiz tasviriy ko'rgazmali qurollar kabinetda saqlash va foydalanish uchun juda qulaydir.



Darslarni turli xil mavuga oid ko'rgazmali vositalardan foydalanib o'tkazish dars jarayoni samaradorligini oshiradi. Masalan, 3-sinf Tabiiy fanlar darsligining "Harorat" mavzusiga to'xtalsak, bunda eng avvalo o'quvchilarda harorat haqida tasavvur uyg'otamiz.



O'quvchilar narsaning issiqlik yoki sovuqlik darajasi harorat deyilishi haqida tasavvurga ega bo'lishgach yangi topshiriq beriladi:



O'quvchilar bunday termometrlar qayerda va qanday maqsadda ishlatilishi haqida bilib olishadi. Ular termometrlar haqida tasavvurga ega bo'lishlari uchun ushbu ko'rgazmali vosita bevosita yordam beradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida ko'rgazmali vositalardan foydalanish o'quvchilarning ijodiy fikrlashini, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini, hamkorlikni va estetik didini rivojlantirishga yordam beradi. Ko'rgazmali vositalardan foydalanishda rolli o'yinlar, guruh loyihalari va fikr almashinuv kabi metodlarni qo'llash o'quvchilarni fikrlash qobiliyatini yanada shakllantirishda samarali hisoblanadi.

Ushbu nazariy asoslar va metodlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida Tabiiy fan darslarini ko'rgazmali qurollar vositasida samarali shakllantirishga yordam beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida Tabiiy fan darslarini ko'rgazmali qurollar vositasida shakllantirish ularning ijodiy salohiyatini ochish, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish va ularni kelajakdagi hayotga tayyorlash uchun muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari o'quvchilarida Tabiiy fanlarga ko'rgazmali vositalar orqali qiziqish uyg'otish ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun muhim ahamiyatga ega. Ko'rgazmali vositalar orqali Tabiiy fanlar mavzularini o'rgatish o'quvchilarning tasavvurini, ijodiy fikrlashini va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan usullar boshlang'ich sinf o'quvchilarida Tabiiy fanlarga qiziqish uyg'otishni samarali shakllantirishga yordam beradi. Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu usullar samaradorligini empirik jihatdan o'rganishga qaratilishi mumkin.

Ushbu maqolada keltirilgan nazariy asoslar va metodlar o'qituvchilarga ushbu jarayonni samarali tashkil etishga yordam beradi. Kelajakda ushbu mavzuni chuqurroq o'rganish va amaliy tadqiqotlar o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev 2017-yil 22-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasi
2. D.A.Muminova, M.N.Qo'ldasheva, N.Z.To'rayeva, Z.B.Yulchiyeva. Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi. Darslik.-N.: "NamDU", 2023. - 220 b.
3. "Tabiiy fanlar va uni o'qitish metodikasi" fanidan 5111700 - Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish yo'nalishi, 4-kurs talabalari uchun o'quv – uslubiy majmua. Namangan davlat universiteti. 2023-yil

4. Boshlang'ich sinf Tabiiy fanlar darslarida ko'rgazmali vositalardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari [Elektron resurs]: Kirish rejimi: <http://www.kitaphana.kz>
5. Boshlang'ich sinflarda Tabiiy fanlar o'qitish metodikasi [Elektron resurs]: Kirish rejimi: [http:// www.coolreferat .com/](http://www.coolreferat.com/)